V. Xizmatlar

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2021- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 9 273,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 3 063,9 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 33,0 %ini tashkil qildi. 2020- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 107,6 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)

	mlrd. so‘m	*2020- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Jami xizmatlar:	**9 273,6**	**115,3**	**100,0**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	290,1	135,3	3,1
Moliyaviy xizmatlar	1 336,7	114,5	14,4
Transport xizmatlari	2 170,4	113,2	23,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 030,1	110,7	21,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	343,1	106,7	3,7

	mlrd. so'm	*2020- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Savdo xizmatlari	3 105,0	110,1	33,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	291,6	131,1	3,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	252,4	127,8	2,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	199,5	143,6	2,2
Ijara xizmatlari	285,9	124,2	3,1
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	190,6	119,9	2,1
Shaxsiy xizmatlar	261,2	122,9	2,8
Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	332,6	124,0	3,6
Boshqa xizmatlar	214,6	120,1	2,3

Yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (24,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (35,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (46,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (31,1 %), ijara xizmatlari (24,2 %), savdo xizmatlari (10,1 %), shaxsiy xizmatlar (22,9 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (19,9 %), transport xizmatlari (13,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,5 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida (6,7 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining o'sishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 33,5 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar transport xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlarda (14,4 %) qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmlarida uncha katta bo‘lmagan o‘sish kuzatilib, ularning ulushi 3,7 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo‘lmagan ulush ta’lim sohasidagi xizmatlar (2,7 %), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,6 %) hamda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hissasiga (3,1 %) to‘g‘ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtdan uch qismini, aniqrog‘i 68,6 %ini tashkil etdi (2020- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 68,1 %ga to‘g‘ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,9 %ni tashkil etdi.

Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 11,5 %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, %da
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Zangiota (122,1 %), Parkent (118,7 %), Bo‘stonliq (119,2 %), Yuqori Chirchiq (118,5 %) tumanlarida hamda Nurafshon (113,9, Olmaliq (116,3) Bekobod (114,0 %) %) va Yangiyo‘l (117,8 %) shaharlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo‘lmagan o‘sish Qibray (111,3 %), Piskent (115,2 %), Toshkent (119,9 %), Ohangaron (111,3 %) va Quyi Chirchiq (116,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari taqqoslanishi, %da
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-iyunga nisbatan %da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da	ming so‘m	2020- yil yanvar-iyunga nisbatan %da
Viloyat bo‘yicha	**9 273,5**	**115,3**	**100,0**	**3 105,9**	**114,0**
shaharlar:					
Nurafshon	386,0	113,9	3,4	7 451,9	107,3
Olmaliq	648,6	116,3	6,0	4 843,8	114,3
Angren	583,4	110,9	6,3	3 035,5	109,0
Bekobod	433,4	114,0	4,7	4 458,5	112,8
Ohangaron	186,3	116,0	2,0	4 751,3	112,4
Chirchiq	766,0	112,8	7,3	4 691,4	108,9
Yangiyo‘l	422,7	117,8	3,6	6 796,4	114,6
tumanlar:					
Oqqo‘rg‘on	246,6	115,5	2,7	2 311,5	113,9
Ohangaron	134,6	111,3	5,5	1 384,6	109,8
Bekobod	264,1	111,1	2,8	1 650,9	109,7
Bo‘stonliq	572,0	119,2	6,2	3 337,4	117,8
Bo‘ka	254,6	115,6	2,7	1 987,3	113,8
Quyi Chirchiq	970,6	116,1	2,0	1 656,0	113,6
Zangiota	914,1	122,1	10,5	4 987,6	124,4
Yuqori Chirchiq	183,0	118,5	3,3	2 217,4	115,0
Qibray	362,0	111,3	9,9	4 502,9	110,0
Parkent	141,7	118,7	3,9	2 289,6	116,7
Piskent	302,9	115,2	1,5	1 384,2	113,6
O‘rta Chirchiq	258,6	111,3	3,5	2 122,8	117,0
Chinoz	310,4	111,2	2,8	1 890,4	109,0
Yangiyo‘l	425,8	113,1	4,6	2 024,8	113,2
Toshkent	505,9	119,9	4,8	2 748,0	117,8

Hududlar o‘rtasida eng yuqori o‘sish sur’atlari Zangiota (124,4 %), Parkent (116,7 %), Bo‘stonliq (117,8 %), Yuqori Chirchiq (115,0 %) tumanlari va Nurafshon (107,3 %), Olmaliq (114,3 %), Bekobod (112,8 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Eng past o‘sish sur’atlari esa Bo‘ka (113,8 %) va Bekobod (109,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3105,9 ming so‘mga teng bo‘ldi. O’sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 114,0 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida - 7 451,9 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3 %) va Yangiyo‘l shahrida - 6 796,4 ming so‘mni (114,6 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Quyi Chirchiq tumanida - 1 656,0 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 113,6 %), Ohangaron tumanida - 1 384,6 ming so‘mni (109,8 %) va Piskent tumanida - 1 384,2 ming so‘mni (113,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi, %da

(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 70,8 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda eng yuqori ulush Bo‘ka (76,5%), Oqqo‘rg‘on (64,8 %), Toshkent (83,9 %), O‘rta Chirchiq (69,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelib, aksincha past ulush Nurafshon shahar (85,1 %) va Qibray tumanida (69,5 %) kuzatildi.